

**ABDULLA AVLONIYNING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA
"TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINI O'QITISHNING USULLARI**

Karimova Arujan Kurbonali qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.01.2026

Revised: 13.01.2026

Accepted: 14.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Abdulla Avloniy,
ma'rifatparvarlik,
jadidchilik, ta'lim
islohoti, yangi usul
maktablari, pedagogik
meros, milliy ong,
axloqiy tarbiya, ijtimoiy
ahamiyat.*

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining namoyondalaridan biri – Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik faoliyati va uning ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Unda Avloniyning jadidchilik harakatidagi o'rni, ta'lim islohoti yo'lidagi sa'y-harakatlari, yangi usul maktablarini rivojlantirishdagi xizmati hamda pedagogik va adabiy merosining jamiyat ma'naviy yuksalishidagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, uning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi asarlarida ilgari surilgan axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarning yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari milliy ongni shakllantirish, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy ettirishda muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kirish

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onishning muhim bosqichini tashkil etadi. Mazkur harakatning yetakchi vakillaridan biri Abdulla Avloniy bo'lib, u o'zining serqirra faoliyati bilan xalq ma'rifatini oshirish, yangi usuldagi ta'limni joriy etish hamda jamiyat ongini yangilashga katta hissa qo'shgan. Abdulla Avloniy nagfaqat adib va pedagog, balki faol jamoat arbobi sifatida ham millat taraqqiyoti masalalariga befarq bo'lmagan. Abdulla Avloniy – o'zbek ma'rifatparvarligi va jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, u pedagog, yozuvchi, shoir, dramaturg va jamoat arbobi sifatida tanilgan. Uning faoliyati Turkiston jamiyatini jaholatdan chiqarish, ilm-fan va madaniyat orqali taraqqiyotga yetaklashga qaratilgan edi. U o'z asarlari, darsliklari va amaliy faoliyati orqali jamiyatni ma'naviy yangilash, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ydi. Abdulla Avloniyning ta'lim va tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, milliy qadriyatlari bilan juda bog'liqligi adibning boy merosi dastlab ta'lim va tarbiya masalalarini rivojlantirish va uni o'quvchilar qalbida keng targ'ib

qilshda va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilib kelayotganligi hozirgi davr talabidir. Hozirgi kunga kelib ushbu mavzu dolzarbligi haqida gapirsak, jadidlarning yetuk vakili Ismoilbek Gaspirinskiy va uning davridagi jadidchilarning ma'rifatparvarlik g'oyalari haqidagi ma'lumotlarni bilish bugungi kundagi ma'naviy hayotimizning qadr-qiymatini o'rganish va uning ilmiy merosini asrashdek vazifalarni oldimizga qo'yadi. Hammamizga ma'lumki, jadidchilik eng avvalo ma'rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo'lganligi sababli o'z faoliyatlarini maktablar ochish, darsliklar yozish va matbuot nashrlarini chiqarishdan dastlabkiqadamlarni qo'ya boshladilar. Bu xalqimizni ma'rifatli qilishga qo'yilgan dastlabki shahdam qadamlar edi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Metodologiya

Hammamizga ayonki, har bir davlat, millatning o'z ma'naviy qiyofasi bor. Bugungi kunda har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish eng muhim va hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda birinchi o'rinda millatimiz tarixini o'zida mujassam etgan tarixiy badiiy hamda ilmiy asarlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyoti bunday asarlar juda ko'p. Ularni sanaydigan bo'lsak Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" kabi darsliklarini nazarda tutishimiz mumkin. Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zbek ma'rifatparvar adabiyotining eng muhim namunalardan biri sanaladi. Ushbu asar chuqur tarbiyaviy, axloqiy va milliy g'oyalarga boy bo'lib, maktab adabiy ta'limida alohida o'rin egallaydi. 1913-yilda nashr etilgan bu kitob o'z davrida yoshlar uchun axloqiy qarashlarni yoshlar tarbiyasiga singdiradigan qo'llanma sifatida yozilgan. Unda halollik, poklik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish kabi fazilatlar ulug'lanadi. Dastlab, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" jadidlarning rahnamosi hisoblangan Munavvarqori Abdurashidxonov va bir qancha pedagoglar taklifi bilan yaratilgan asarni o'qitishning usullariga e'tiborimizni qarataylik. Asarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda axloqiy tafakkur, hayotga ongli munosabat, insoniy fazilatlar hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi shakllanadi. Darslarni "Axloqning jamiyat hayotidagi o'rni", "Ilm va jaholat qarama-qarshiligi", "Halollikning inson hayotidagi ahamiyati", "Vatanga muhabbat – oliy qadriyat" kabi mavzular asosida tashkil etish mumkin. Bunday mavzular munozara, ijodiy ishlar, sahnalashtirilgan chiqishlar va badiiy tahlillar orqali yanada mazmunli bo'ladi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini o'rganishda faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy va interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Bu yondashuv o'quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta'minlab, mustaqil fikrlash va hayotiy xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Xususan, Insert texnologiyasi matn bilan faol ishlash imkonini yaratadi. O'quvchilar o'qish

jarayonida ma'lumotlarni maxsus belgilar orqali ajratib, o'z munosabatini bildiradi. Venn diagrammasi yordamida esa Avloniy ilgari surgan axloqiy qarashlar zamonaviy qadriyatlar bilan taqqoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Kichik guruhlarda ishlash metodi orqali asar bo'limlarga ajratilib, har bir guruhga muayyan bobni tahlil qilish vazifasi yuklanadi. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini taqdim etish, jamoa bilan ishlash va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini egallaydi. Rol o'ynash usuli esa axloqiy holatlarni sahnada jonlantirib, o'quvchilarda empatiya, ijodkorlik va tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi. Mazkur metodlar nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning axloqiy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarni anglash va mustaqil fikr yuritishida ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi asosiy axborot beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. . Abdulla Avloniy adabiyotning inson qalbiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uni ma'naviy jihatdan tarbiyalash qudratiga ega ekanini alohida ta'kidlaydi. Shu bois yozuvchi o'z asarlarida badiiy ifoda bilan tarbiyaviy maqsadni uzviy bog'lab, axloqiy g'oyalarni ta'sirchan shaklda yetkazishga intiladi. Bu jihat Avloniy ijodini maktab adabiy ta'limi uchun muhim va dolzarb manbaga aylantiradi. Avloniy asarlarini o'qitishda samaradorlikka erishish uchun turli pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, muammoli o'qitish metodi o'quvchilarni matn mazmuni ustida mustaqil fikr yuritishga undaydi. Asar asosida beriladigan savollar orqali munozarali vaziyat yaratiladi. Masalan, "Avloniy nima sababdan axloq va ilmni bir-biri bilan chambarchas bog'liq deb ko'rsatadi? yoki "Adib ko'rsatgan illatlar bugungi jamiyatda ham uchraydimi?" kabi savollar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini faollashtiradi. Interaktiv usullardan foydalanish ham dars jarayonini jonlantiradi. "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", "Insert" texnologiyasi kabi metodlar orqali o'quvchilar faolligi oshib, ularning mantiqiy va tanqidiy tafakkuri rivojlanadi. Bunday yondashuv darsni faqat ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, fikr almashish va xulosa chiqarishga yo'naltiradi. Rol o'ynash va sahnalashtirish usullari esa o'quvchilarning obrazli fikrlashi, nutq madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Asardagi muhim lavhalarni sahna ko'rinishlari orqali namoyish etish o'quvchilarga axloqiy g'oyalarni chuqurroq his etish imkonini beradi. Integratsion yondashuv ham Avloniy ijodini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adib asarlarini tarix, ona tili, geografiya va axloqiy tarbiya fanlari bilan bog'lab o'rganish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi. Xususan, asarlarda tilga olingan tarixiy shaxslar va davr voqealarini tarix fani bilan uyg'unlashtirish dars mazmunini boyitibgina qolmay bu shaxslar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishga ham undaydi. Endi esa 10-sinf adabiyot darsligida berilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini o'qitish usullarini ko'rib chiqamiz. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiya, odob, vatanparvarlik, ilmga muhabbat, halollik va mas'uliyat kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi. Avloniy axloqni shaxs kamolotining poydevori sifatida talqin etib, "tarbiya yo

hayot, yo mamot masalasidir” degan g‘oyani ilgari suradi. Bu jihatdan asar nafaqat adabiy, balki pedagogik manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Asarni dars jarayonida o‘qitishda quyidagi metodik tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Tizimlilik va izchillik – asar boblari axloqiy tushunchalar ketma-ketligiga asoslanib o‘rganiladi. Yosh xususiyatlarini inobatga olish – matn mazmuni o‘quvchilarning yosh va tafakkur darajasiga mos talqin qilinadi.

Nazariya va amaliyot uyg‘unligi – axloqiy g‘oyalar hayotiy misollar bilan boyitiladi.

Faollashtiruvchi yondashuv – o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish. Asarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi:

Suhbat va savol-javob metodi – axloqiy tushunchalarni anglashda muhim;

Matn ustida tahliliy ishlash – asosiy g‘oya, kalit so‘z va xulosalarni aniqlash;

Muammoli ta‘lim – “Agar tarbiya bo‘lmasa, jamiyatda qanday oqibatlar yuz beradi?” kabi savollar orqali fikrlashni rivojlantirish;

Taqqoslash metodi – Avloniy qarashlarini zamonaviy axloqiy qadriyatlar bilan solishtirish.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar dars jarayonida tog‘ri shakllantirilsa, asarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- axloqiy fikrlash va baholash qobiliyati;
- ijtimoiy mas‘uliyat va fuqarolik ongining rivoji;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;
- mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasi.

Tahlil va natijalar

“Turkiy guliston yoxud axloq” o‘zbek adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanib, asarning tuzilishi buyuk mutafakkir Shayx Muxlisiddin Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asariga nazira sifatida yaratilgan Kelajak avlodni voyaga yetkazish, odobiy va axloqiy tarbiyaga ega bo‘lishi va ularni yaxshilikka chorchash va yomonlikdan qaytarish faqatgina tarbiya orqali amalga oshiriladi. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning pedagogika haqidagi ta‘rifi ham hozirgi zamon ta‘rifiga juda mos keladi: “Tarbiya – Pedagogika”, ya‘ni bola tarbiyasining fani demakdir.³

Asarda tarbiya beruvchilarning ham qanday bo‘lishi kerakligi haqida juda mulohazali fikrlarni ilgari suradi: “Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga da‘vo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl illatiga” “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir” deydi. “Bolaning salomatli va saodatli uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab

³ A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent “Yoshlar matbuoti” 2024 yil – 8-bet.

o'sdurmakdur"— deb bolaga qanday qilib tog'ri tarbiya berish mumkinligi haqida o'z fikrlarni asarda namoyon etadi. Asarda shunday fikrlar bilan davom etadi ya'ni axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q insonlar insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday voyaga yetadi, tabiat o'zgarmas demishlar ammo, bu so'z tog'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta ta'siri bo'ladi. Xalqimiz orasida shunday masal ham borki, "Jon ila kirgan sut ila chiqar" mana bu so'z tog'ridur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vassallam afandimiz: "Beshikdan to mozorga qadar ilm o'rgan"⁴ demishlar. Bu so'zlarga asarda keltirilgan shu to'rt qator she'r matniga tahlil qilish jarayonida guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
G'ayrat aylang o'tmasun vaqt-zamoni tarbiyat,
Moyayi zili xumodur tarbiyatning soyasi
Bizda anqo tuxmidek yo'q oshyoni tarbiyat.

Asardagi mazkur she'riy parcha ma'rifatparvarlik adabiyotiga xos bo'lib, unda tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Asarda muallif otalarga bevosita murojaat qilish orqali tarbiyaning oiladagi hal qiluvchi o'rnini ta'kidlaydi. "Ey, Otalar!" shaklidagi ritorik murojaat tarbiyaning individual emas, balki ijtimoiy mas'uliyat ekanini ko'rsatadi. She'rda vaqt omili alohida urg'u bilan yoritiladi. "O'tmasun vaqt-zamoni tarbiyat" misrasi tarbiyaning kechiktirib bo'lmaydigan jarayon ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan, shaxs kamolotida bolalik va o'smirlik davri hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Muallif ana shu g'oyani badiiy shaklda ifodalaydi. "Tarbiyatning soyasi" metaforasi orqali tarbiya inson hayotida himoya, barqarorlik va ma'naviy panoh vazifasini bajarishi ramziy tarzda tasvirlanadi. Bu o'rinda tarbiya shaxsni salbiy ijtimoiy ta'sirlardan saqlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy-pedagogik jihatdan qaralganda, tarbiya shaxsning axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojida muvozanatni ta'minlovchi omil sifatida baholanadi.

"So'nggi misrada keltirilgan "anqo tuxmi" obrazi tanqidiy mazmun kasb etadi. Ushbu obraz orqali jamiyatda tarbiya uchun zarur muhit va tizimli yondashuv yetishmasligi keskin ifodalanadi. Bu holat muallifning ijtimoiy tanqidini kuchaytirib, tarbiya masalasining faqat oilaviy emas, balki davlat va jamiyat miqyosidagi muammo ekanini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yuksak namunasi bo'lib, unda axloqiy tarbiya masalalari milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yoritilgan. Muallif asarda inson kamoloti, ilmiy ma'rifatning ahamiyati, yaxshi va yomon xulq-atvor, vatanparvarlik hamda ijtimoiy

⁴ A.Avloniy. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma, Qayta nashr. Toshkent "Zabarjad media" 2024 yil – 242-bet.

mas'uliyat kabi masalalarni sodda, ammo ta'sirchan uslubda bayon etadi. Asarning asosiy g'oyasi – jamiyat taraqqiyoti, avvalo, tarbiyali va ma'rifatli shaxsni voyaga yetkazish orqali ta'minlanishidir. “Turkiy Guliston yoxud axloq” bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Undagi axloqiy qarashlar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, milliy ong va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham mazkur asarni ta'lim tizimida o'rganish va targ'ib etish nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini dars jarayonida o'qitish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni zamonaviy pedagogik metodlar asosida o'qitish yosh avlodda komil inson sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur asar ta'lim tizimida uzluksiz va tizimli ravishda o'qitilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent “Yoshlar matbuoti” 2024 yil – 99-bet.

2.A.Avloniy. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma, Qayta nashr. Toshkent “Zabarjad media” 2024 yil – 367-bet.

3. M.S.Salayeva va b. Umumiy pedagogika. – Toshkent “Nodirabegim” 2021.

4. Husanboyeva. Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent “Shafolat nur fayz” nashriyoti – 2020 yil 339-bet.

5. Seydanov.Q. Adabiyot 10-sinf darsligi. Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti – 2022 yil 310-bet.